

**MUQIMIY, FURQAT VA AVAZ O'TAR ASARLARIDAGI KELISHIK,
SIFATDOSH VA RAVISHDOSH QO'SHIMCHALARINING
O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI**

Qurbanova Marjona Samarovna

Chirchiq davlat pedagogika Universiteti talabasi.

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika Universiteti ona tili
va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Maqola Muqimiy, Furqat,Zavqiy va Avaz O'tar asarlaridagi kelishik, sifatdosh va ravishdosh qo'shimchalarining o'xhash va farqli jihatlariga bag'ishlandi.

Kalit so'zlar: Ma'rifikatparvarlik, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, kelishik shakllari, o'xhash va farqli jihatlar.

Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmida Ma'rifikatparvarlik adabiyoti vujudga keldi. Bu davr adabiyoti vakillari sifatida Muqimiy, Furqat, Zavqiy,Avaz O'tar kabi adiblarni bilamiz. Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya Imperiyasi O'rta Osiyoni istilo qilishi natijasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Bu davr o'zbek adabiy tili taraqqiyotida o'ziga xos bosqichni tashkil etdi. Bu bosqichda paydo bo'lgan asarlar tilida so'zlashuv nutqiga xos xususiyatlar,mumtoz adabiyotga xos badiiy uslub va grammatik shakllar hamda rus tiliga xos unsurlar uchrashi ahamiyatli tomoni hisoblanadi. Bu davrda ijod qilgan Muqimiy, Furqat va Avaz O'tar asarlari xalqqa tushunarli tilda yozildi. E'tiborli tomoni xalq tili,folkleri hisobiga boyidi.

Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar asarlarida ham eski o'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan affikslar va ularning turli shakllarda qo'llanilishini kuzatamiz. Muqimiy

she'rlarida hozirgi o'zbek adabiy tilidagi chiqish kelishigi qo'shimchasining -dun shaklida qo'llanishi uchraydi.

Dedi: ruqum o'rgatasiz siz anga,

Istagan yanglig' vujudin andun anqo, bachchag'ar.

Furqatning asarlarida esa bu kelishik affiksi-din tarzida ishlataligan.

Orazidin baytul-xazonim munavvar bo'lmasa...

Eshitganlar ani holin bilurlar.

Avaz O'tarda esa ham -din,ham-dan ko'rinishida uchraydi.

Zohid ul oydin ijtinob etsa ne tong ahbobkim,

Gar tushsa o'lgay la'mai xurshid xuffosh ustuna.

Tushum kelishigi qo'shimchasi Muqimiylar va Furqatning asarlarida -ni,-i shaklida uchraydi.

Olding ko'ngilni bir ikki so'zlab,

Devon bo'ldim to'ti maqolim.

Kel, qo'yma balo domi birla oni po basta

Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek.

Avaz O'tar she'rlarida tushum kelishigi qo'shimchasi-ni,-in,-i ko'rinishlarida qo'llangan.

Ey, olami anjum aro orom suranlar,

Sizlarda daxl mormudur ahkom suranlar.

Jo'nalish kelishigi Furqat va Muqimiylarida-a,-g'a tarzida kelsa, Avaz O'tar she'riyatida-ga,-g'a,-a shaklida uchrashini kuzatish mumkin. Boshqa adiblardan yana bir farqi shundaki, jo'nalish kelishigining-go holatida ham qo'llanishi uchraydi.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,

Adabdur izdiyodi baxtu izzat.

Gar firoq ayyomining bilman hisobin ne ajab,

Kim yuzing hajarida kunduz kecha yanglig'dur mango.

Bu davrda jo'nalish kelishigining-g'a shakli eng ko'p qo'llanilgan.

Kulfat tushib boshig'a ,

Og'u tushib boshig'a ,

Kelmay kishi qoshig'a,

Aqrobu mehribonlar.

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi esa har uchala adibda ham bir xilda: -ing,-ning holatida uchraydi.

Bulut qatra fishonu,ruhafzo sabzalar xandon,

Arig'larning labida sabzakori bir chaman bo'lsa.

O'rinn-payt kelishigi esa hozirgi o'zbek adabiy tilidagi holida qo'llanilgan.

Hajring boshima tushgach, ey la'li labi gulgun,

Bori alam ostida qaddim dog'i bo'lmish nun.

Muqimiylar va Furqatning asarlarida kelishik qo'shimchalari deyarli farqsiz ishlatilgan. Ammo Avaz O'tarzda esa ba'zi shakllar o'zgarganligi ko'zga tashlanadi. Bunga sabab qilib geografik joylashuvini asos qilib olsak bo'ladi. Muqimiylar va Furqat Qo'qon xonligida yashab ijod qilgan, Avaz O'tar esa Xiva xonligi madaniy muhitida ijod etgan shoir hisoblanadi. Shuning uchun ham ular o'rtasida biroz farqni uchratishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. .U. Tursunov, B. O'rinoymov, A. Aliyev. *O'zbek adabiy tili tarixi*. Toshkent "O'qituvchi", 1995
2. .Muqimiylar. *Tanlangan asarlar*. Toshkent. 2011
3. .Furqat. *Tanlagan asarlar*. Toshkent 1980
4. ."Ma'naviyat yulduzlari". Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. Toshkent 1999